*Taʼlim* – bilim olish yoki berish jarayonida aks etib, maʼrifat tarqatuvchida malaka, koʻnikma hosil qilsa, taʼlim oluvchida intellektual ong, dunyoqarash va ilmiy salohiyat hosil etishga qaratilgan ijtimoiy kategoriya hisoblanadi.

Taʼlim mohiyat jihatidan obyektiv hodisa boʻlib, inson hayotida muhim oʻrin tutadi. Uning ulugʻvorligi shundaki, taʼlimni barcha shakli, yaʼni xoh diniy yoki dunyoviy boʻlmasin, zamonlar osha oʻz qadrini yoʻqotmasdan kelmoqda. Aksincha, inson – shaxs sifatida taraqqiy etgani sari, taʼlimga boʻlgan ijtimoiy ehtiyoji yanada oshib bormoqda. Bu borada Shavkat Miromonovich shunday fikrni keltirib oʻtadi: "Mening qatʼiy ishonchimga koʻra, jamiyatda taʼlimning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolotga intilishini ragʻbatlantirish – bu barqaror va izchil taraqqiyotga erishish kafolatidir"[4; 229-b.]. Shu nuqtai nazardan qaraganda insonparvarlik ruhida tashkillashtirilgan taʼlim va tarbiya orqali yoshlar dunyoqarashida mafkuraviy immunitetni shakllantirish mumkin.

*Tarbiya* – "individ-inson-shaxs" oʻrtasidagi dialektik aloqadorlikni aks ettiruvchi ijtimoiy kategoriya sifatida shaxsni: ruhiy emotsional, maʼnaviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy hamda jismoniy kamol topishida birlamchi omil hisoblanadi. Ushbu fikrni tasdiqlovchi qarash Abdurauf Fitratning "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" nomli risolasida ham keltirilgan. Mutafakkir tarbiyani 3 qismga ajratadi: 1) "Badan tarbiyasi", 2) "Aqliy tarbiya", 3) "Axloqiy tarbiya"[5; 168-b.].

Tarbiyaning oʻziga xosligi shundaki, jamiki tirik jonzotlarning barchasi unga doimiy ehtiyoj sezib yashaydi va har daqiqa undan foydalanishga harakat qiladi. Bu oʻz navbatida, "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"[6; 7-b.], shiorining naqadar haq fikr ekanligini anglatadi.

Tarbiya kategoriyasi tarkibiy tuzilmasiga koʻra: "ruhiy tarbiya", "axloqiy tarbiya" va "jismoniy tarbiya" kabi ijtimoiy-psixologik elementlarga ajratiladi.

*1. Ruhiy tarbiya* tushunchasining mazmun-mohiyatini tushunishda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining uch jildlik "Ruhiy tarbiya" toʻplami, muhim manba hisoblanadi. Ushbu asar muqaddas Islom dinining asosiy aqidalaridan biri boʻlgan "nafs tarbiyasi" masalasiga bagʻishlangan boʻlib, kitobda: "Nafs pokligi mohiyati", "Nafs va uni poklash", "Nafsni poklash va axloqni sayqallash ilmi tarixi", "Ilmning fazli va unga oid masalalar", "Ilmlarning turlari", "Ilmning foydalari"[7; 464-b.] va boshqa shu kabi ruhiy tarbiyaga oid masalalar batafsil yoritiladi.

*2. Axloqiy tarbiya* – kishi xarakterida gavdalanib, uning jamiyatda tutgan oʻrnini belgilovchi atribut hisoblanadi. Bu borada Shayx Sa'diyning "Guliston" asarida shunday fikr keltiriladi: kimda-kim yoshlikdan axloqiy tarbiya olmasa, katta boʻlgach, baxtli boʻla olmaydi. Chunki, hoʻl novdani istagancha bukish mumkin, ammo quruq novdani faqat olovda toblab toʻgʻrilashga toʻgʻri keladi[8; 153-b.]. Shu ma'noda odob-axloq, xushmuomalalik, mehnatsevarlik yoshlar qalbida qaror topishini istagan har bir xalq, bu masalaga jiddiy qarashi talab etiladi. Axloqiy tarbiya avvalo "oila" muhitidan boshlanishini unutmaslik kerak. Chunki, shaxsning kelajakdagi taqdiri, mehnat faoliyatidagi yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizligi, uning oilaviy muhiti bilan bilvosita bogʻliqdir.

*3. Jismoniy tarbiya* – inson salomatligi bilan bogʻliq boʻlgan jismoniy va ruhiy mashgʻulotlarni (aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik) majmui hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya orqali insonda estetik zavq, ruhiy quvvat va jismoniy chiniqish hosil boʻladi. Xususan, tarbiyaning bu turi orqali bolalarda sogʻliq mustahkamlanadi, moslashuvchan harakat koʻnikmasi shakllanadi, aqliy va jismoniy mehnat uchun zarur sifatlar, ya'ni harakatchanlik hamda mehnatkashlik qobiliyati rivojlanadi. Shu sababli, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, jamiyatda sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifalarimiz[9; 219-b.] dan etib belgilandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** XXI asrda zamonaviy kibermakon ta'sir doirasiga tushmagan ijtimoiy hayot atributlari qolmadi. Taraqqiyotning bu omili ta'lim va tarbiya nazariyasini ham chetlab oʻtmadi. Ya'ni, ta'lim va tarbiyaga boʻlgan tabiiy ehtiyoj, quyidagi ikki fenomenning shakllanishiga sabab boʻldi:

*Birinchisi:* ***"Iqtisodiy ta'lim"*** – xizmat koʻrsatishda talab va takliflarni inobatga olgan holda, iste'molchining manfaatlariga toʻliq rioya etishga ixtisoslashgan tizim.

Iqtisodiy ta'limga – jamiyat ehtiyojlari natijasi oʻlaroq paydo boʻlgan tizim sifatida baho berishdan koʻra, shaxs manfaatini qondirishga qaratilgan xizmat koʻrsatish majmui deyish mantiqan toʻgʻri boʻladi. Chunki, ta'lim berish xizmatini taklif etuvchi subyektning maqsadi "iqtisodiy" foyda olish boʻlsa, taklifni qabul qiluvchi mijozning maqsadi "shaxsiy manfaat"ni qondirish hisoblanadi. Masalani e'tiborli jihati shundaki, "har ikki jarayondan kim (shaxs yoki jamiyat) koʻproq manfaatdor?!" savoliga turlicha munosabat bildirilmoqda. Quyida ba'zi ilmiy izlanishlar xulosalarini koʻrib chiqamiz:

1. Iqtisodiy ta’lim hududiy markazlariga iqtisodiy bilimlarni keng targ‘ib etishdan boshlab ixtisoslashgan o‘quv kurslarini tashkil etishgacha bo‘lgan diapazonda ta’lim xizmatlari ko‘rsatishini belgilab qo‘yishi lozim. Bunda keng tarmoqli faoliyatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan boshqaruv strategiyasi, ta’lim xizmatlari bozorini tadqiq etish va yaratishga, shuningdek, kengaytirishga yo‘naltirilgan marketing strategiyasi ham ishlab chiqilishi kerak[10; 42-c.].

2. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida ta’lim jarayonining hal qiluvchi omili – interaktiv loyihaga yo‘naltirilgan ilg‘or ta’lim texnologiyasiga asoslangan bo‘lishi kerak. Uning xususiyati *bir tomondan*, innovatsion tadbirkorlikka yo‘naltirilgan barcha ta’lim faoliyatlarini aniq belgilash, *ikkinchi tomondan*, talab qilinayotgan bilim darajasiga faol innovatsion ta’lim texnologiyasidan foydalanish orqali erishish mumkinligini bilish zarur[11; 64-c.].

3. Iqtisodiy ta’limning innovatsion o‘zanlarda rivojlantirilishiga erishish uchun mamlakat hududlari o‘rtasida ham iqtisodiy ta’lim sohasida o‘ziga xos raqobatlashuvchi ta’lim markazlarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu bir tomondan, hududlarni iqtisodchi kadrlar bilan ta’minlash muammolarini hal qilishga turtki bo‘lsa, boshqa tomondan, iqtisodchi kadrlar mobilligini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Bu yerda masalaning ikki tomoni mavjud. Avvalo, iqtisodiy ta’lim iste’molchilari sifatli iqtisodiy ta’lim berilayotgan hududlarga siljib o‘tadi. Ikkinchidan, sifatli ta’lim beruvchilar yuqori mehnat sharoitlari va ish haqi taklif qilayotgan ta’lim muassasalariga oqib o‘tadi. Bu jarayonda hududlar o‘rtasida intellektual tajriba almashish, malakali kadrlar harakatchanligini ta’minlaydi[12; 93-c.].

4. Iqtisodiy ta’lim tizimining amal qilish samaradorligiga baho berishda mehnat bozori va ta’lim xizmatlari bozori segmentidagi konyunkturaviy o‘zgarishlar hamda mazkur iqtisodiy ta’lim tizimining tarmoq va hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda o‘rganilishi kerak. Aks holda ta’lim xizmatlari bo‘yicha raqobat muhiti va raqobatlashish shart-sharoitlarini kengaytirish, ta’lim tizimining funksional vazifalarini bajarish jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha yetarli darajada ilmiy-amaliy, nazariy xulosalar hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muammosini hal etib bo‘lmaydi[13; 312-317 b.].

5. Iqtisodiy ta’lim iqtisodiy tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirib, uning samarasi tadbirkorlik, resurslardan tejamli foydalanish, bank krediti bilan ishlash, pinhoniy iqtisodiyotdan saqlanish va soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirish, uy xo‘jaligini yuritishda hisob-kitob, yangiliklarga intilish va jamiyat iqtisodiy faoliyatidagi ishtirokida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantiruvchi kuch inson omili ekan, insonning iqtisodiy bilimlarni egallashi va iqtisodiy tarbiyaga ega bo‘lishi, iqtisodiy madaniyatliligini ta’minlaydi. Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi iqtisodiy madaniyatni shakllantirishdan iborat[14; 11-15 b.].

6. Iqtisodiy ta’lim: 1) onlayn ta’limni amalga oshirishda eng ko‘p murojaat etiladigan yo‘nalish; 2) bu ta’lim turida o‘rganish vaqtining mavjudligiga kelsak, o‘quvchilar buni yetarli deb hisoblaydilar, garchi ba’zan bu yetarli emasligini inkor etib bo‘lmasada; 3) iqtisodiy ta’lim o‘quvchilarining o‘qishga tayyorgarligi ancha yaxshi, ammo konsentratsiya va talabalarning ishtiroki yaxshi emas, ular o‘quv materiallarini tushunish qobiliyati tarmoq sharoitlari, vaqt va o‘qituvchilarning monoton ko‘rinadigan dars usullari tufayli ham biroz muammolarga uchramoqda[15; 705 p.].

7. Kibermakon davri – odamlarni mazmunli iqtisodiy ta’lim olish uchun katta imkoniyatdir, chunki Yevropaning turli mamlakatlarida iqtisodiy ta’limni tarqatish uchun

internet platformalar yaratilgan. Ushbu platformalar nafaqat shaxsning iqtisodiy ta’lim oluvchisi o‘rtasidagi birinchi aloqani, balki xususiy sektor bilan keyingi aloqalarni ham ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiy ta’limni doimiy o‘zgarishlar sharoitida iqtisodiy muhitning o‘ziga xos ehtiyojlariga ko‘proq moslashib borishini ko‘rsatadi[16; 334-b.].

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqot natijalariga e’tibor bersak, ular iqtisodiyot sohasidagi “iqtisodiy ta’lim”, unga ajratilayotgan iqtisodiy sarmoyaning natijasi, jamiyat taraqqiyoti uchun zarurati, urg‘u berish kerak bo‘lgan yo‘nalishlari ko‘rib o‘tilgan. Biz tomondan keltirib o‘tilgan *“iqtisodiy ta’lim”* tushunchasida – ta’lim va tarbiyani tashkillashtirish, sifatli ta’lim berish tizimini yo‘lga qo‘yish – millat, xalq va nihoyat jamiyat taraqqiyoti uchun poydevor bo‘lishini anglash o‘rniga, undan iqtisodiy foydalanishga urinish, ya’ni ta’limga “biznes” sifatida qarash tenedensiyasining oshib borayotganligini asoslash maqsad qilingan.

“Iqtisodiy ta’lim” borasida biz e’tibor qaratishni istaydigan masala – “ta’limga “iqtisodiy foyda” keltiruvchi soha sifatida qarash qanchalik to‘g‘ri?!” savoli ostida bo‘ladi. Bu boradagi fikr mulohazalarimiz quyidagicha:

*Birinchidan,* ta’lim va tarbiya nafaqat jamiyat taraqqiyoti, balki insoniyat kelajagini (genofondini) saqlab qolish uchun ham zarur hisoblanadi. Bu tizimni “iqtisodiy manfaatdorlikdan” holi qilish naqadar dolzarb masala ekanligini anglab yetishimiz zarur. Chunki, zamonaviy dunyoda ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi taraqqiyot belgilari “iqtisodiy manfaatdorlik”ka borib taqalishi odatiy tusga kirib borayotgan bugungi kun – bir qator savollarni o‘rtaga tashlamoqda. Xususan, ta’lim taraqqiyotiga “iqtisodiy foyda” keltiruchi tizim sifatida qarash qanchalik to‘g‘ri? Uning oqibatlari qanday bo‘ladi? Bu yo‘l insoniyatning tadrijiy taraqqiyotida qanchalik foydali bo‘lishi mumkin? Bu kabi savollar ochiq qolmoqda.

*Ikkinchidan,* sifatli ta’lim taraqqiyoti miqdor bilan belgilanmaydi. Albatta, falsafada “miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishiga ta’siri” borasidagi dialektika qonuni mavjud. Ammo bu ta’lim jarayonidagi sifat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq statistikaga qanchalik mos kelishini o‘ylab ko‘rish kerak! Chunki, jamiyatda maqsadli ta’lim berish tizimida sifat ko‘rsatkichlariga erishish zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanganlik, kreativ fikrlaydigan malakali kadrlarning mavjudligi, talaba yoshlarni bilim olishiga yaratilgan shart-sharoit va ijodiy muhitning mavjudligi bilan belgilanadi.

*Uchinchidan,* bugungi kun statistikasiga e’tibor qaratsak, asosan rivojlangan davlatlarda joylashgan universitetlar “sifatli ta’lim berish” konsepsiyasiga amal qilmoqda. Masalan, Mursii universiteti – yiliga 1 000 ta talaba qabul qiladi (Ispaniya). Siyen universitetida – 20 000 talaba ta’lim oladi (Italiya). Kembrij universitetida – 18 000 ga yaqin talaba ta’lim oladi (Angliya). Oksford universitetida – 22 000 nafar talaba ta’lim oladi (Angliya). Bu universitetlar garchi G‘arb dunyosining eng qadimiy oliygohlaridan bo‘lsa-da, maqsadi talabani miqdor jihatidan ko‘paytirish emas, aksincha sifatli kadr tayyorlash bo‘lganligi sababli asosiy e’tiborni “talaba salohiyati”ga qaratmoqda. Birgina misol, Oksford universiteti yuqori raqobatbardosh talaba tayyorlashni asosiy maqsadga aylantirganligi uchun ham dunyo reytingida mashhur. U yerda 22 000 nafar talaba ta’lim olishini yuqorida keltirib o‘tdik, ularning chorak qismi xorijlik yoshlar hisoblanadi. Oksford rasmiy saytining ma’lumotiga ko‘ra, bitiruvchilarining 94 foizi tahsilni yakunlagach, olti oy ichida nufuzli ishlarga qabul qilinadi[17].

*To‘rtinchidan,* miqdor o‘zgarishi natijasida sifat ko‘rsatkichlarining oshib borishi borasidagi dialektik qonun – “ta’lim taraqqiyoti” islohotlariga qay darajada to‘g‘ri kelishini

oʻylab koʻrish shartligidan xulosa chiqarishimiz kerak. Bu albatta, ta'lim sohasida Oʻzbekistonda olib borilayotgan islohotlarga ham tegishli hisoblanadi. Fikrimizga asos:

– Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi axborot xizmatiga koʻra, oʻtgan 6 yil mobaynida oliy oʻquv yurtlari soni 77 tadan 170 taga yetdi, ularga qabul 3,5 baravarga ortdi;

– yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 32 foizga oshirildi;

– oliy ta'limga qamrov darajasini oshirish maqsadida respublika OTMlariga 2022/2023 oʻquv yilida qabul koʻrsatkichlarini 197 ming 858 taga oshirdi. Bu oʻtgan oʻquv yiliga nisbatan 15 foizga (27 ming 203 nafar) oshirilgan[18]. Agar ushbu koʻrsatkichlarni nufuzli universitetlardagi qabul kvotalari misolida taqsimlaydigan boʻlsak, fikrimiz naqadar asosli ekanligi yanada oydinlashadi. Birgina Samarqand davlat universitetida kunduzgi bakalavriat talabalari soni 15 179 nafarni tashkil etgan. Bu raqamlarga: sirtqi, kechki, masofaviy va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalarni ham qoʻshib hisoblasak, 25 000 ga yaqin talabani qamrab olgani ma'lum boʻladi (bakalavriat ta'lim yoʻnalishlari soni 76, talabalari soni 23 687; magistratura mutaxassisliklari soni 55, talabalari soni 907)[19]. Talabalar kontingenti boʻyicha SamDU – Oksford universitetidan yuqorilab ketganligini koʻrish mumkin. Ammo yoshlarga berilayotgan sifatli ta'lim yoki bakalavr, magistr darajasi bilan chiqayotgan kadrlarni jahon bozoridagi talablarga qay darajada mosligi kabi savollar ochiq qolmoqda.

*Beshinchidan,* bizning nazarimizda oliygohlarga moliyaviy mustaqillik berilishi ortidan, talabaga *"iqtisodiy daromad keltiruvchi resurs"* sifatida qarash tendensiyasi oʻz mavqeini yanada mustahkamladi. Masalan, tabaqalashtirilgan toʻlov-kontrakt shartnomasini amalga oshirish tizimining joriy etilishi, nafaqat moliyaviy mustaqil boʻlgan universitetlarda, balki aksariyat davlat tashkiloti hisoblangan oliygohlarda ham miqdor koʻrsatkichi ortidan *"quvish"* an'anasi shakllandi. Ushbu fikrimizga izoh: oliygohga kirish imtihonidan oʻtolmagan abituriyentni *"kirish imtihonidan oʻtdi"* deyish uchun, ularga 3 toifali toʻlov-kontrakt taklifi ishlab chiqildi[20].

*1-toifaga* 4 ballgacha kirish bali yetmay qolgan abituriyentlar kiradi. Bu toifa boʻyicha abituriyent toʻplagan ballari 56,7 balldan kam boʻlmagan va asosiy qabul chegaralariga 4 ballgacha yetmagan boʻlsa, abituriyent uchun belgilangan tartibda toʻlov-kontrakt miqdorlarini belgilash va toʻlash tartibi quyidagicha belgilandi:

– qabul chegarasiga 1 ballgacha yetmagan abituriyent, bazaviy toʻlov-kontraktining 1,5 barobarini;

– qabul chegarasiga 1,1 balldan 2 ballgacha yetmagan abituriyent, 2,0 barobarini;

– qabul chegarasiga 2,1 balldan 3 ballgacha yetmagan abituriyent, 2,5 barobarini;

– qabul chegarasiga 3,1 balldan 4 ballgacha yetmagan abituriyent, 3,0 barobarini toʻlashi belgilab berildi.

Masalan, matematika yoʻnalishida 1,5 ball yetmay qoldi deylik. Bunday vaziyatda oʻsha abituriyent 2 barobar toʻlaydi. Ya'ni, matematika yoʻnalishida kontrakt narxi 6 412 610 soʻm etib belgilangan boʻlsa, demak, matematika yoʻnalishiga 1,5 ball yetmay qolgan abituriyent 12 mln 825 ming soʻm super-kontrakt toʻlaydi (2 x 6.412.610).

*2-toifadagilar* kirish chizigʻiga 4 balldan ortiq yetmay qolgan va oʻzi minimal oʻtish bali (56,7 ball)dan koʻp ball toʻplaganlar hisoblanadi. Bunday abituriyentlar super-kontrakt uchun yoʻnalishiga qarab oddiy kontrakt toʻlovini minimum 8, 10, 12, 15, 17 yoki 25 barobarini toʻlaydi.

Masalan, iqtisod yoʻnalishiga kirish bali 150 ball boʻldi deylik. Abituriyent 70 ball toʻpladi. Unga imtihondan oʻtish uchun 4 balldan ortiq yetmay qoldi, oʻzi ham 56,7 balldan

koʻproq toʻplagan. Iqtisod yoʻnalishiga minimum super-kontrakt 10 barobar etib belgilangan. Stipendiyasiz oddiy kontrakt narxi esa 9,129 930 soʻm. Demak, abituriyent iqtisod yoʻnalishi uchun super-kontrakt miqdorini minimum 91 mln 299 ming soʻm (10 x 9 129 930) toʻlaydi.

*3-toifaga* 56,7 balldan kam toʻplaganlar kirishi belgilandi. Bunday abituriyentlar «super-muper» kontraktda oʻqishi mumkin, faqat kamida 2-toifadagilar toʻlaydigan summaning 2 barobarini toʻlashadi. Masalan, abituriyent iqtisod yoʻnalishiga topshirib, 40 ball toʻplagan, yaʼni 56,7 balldan kam. Demak, u kamida 182 mln 598 ming soʻm toʻlashi kerak (2 x 91 299 300)[21] boʻladi.

*Ikkinchisi, **"Iqtisodiy tarbiya"*** – bu tarbiya deformatsiyalashuvi bilan bogʻliq tushuncha boʻlib, uning mohiyati: yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan salbiy oʻzgarishlar, ota-ona tomonidan bola tarbiyasiga "ikkinchi darajali masala" sifatida qarash tendensiyasini oshib borayotganligi, "oila muqaddas" tushunchasining oʻrniga moddiy manfaatdorlikka intilish kayfiyatining qaror topayotganligi bilan izohlanadi.

Dunyoda "tarbiya deformatsiya"si kechmoqda. Xususan, xalqimiz keyingi yuz yillikda ming yillik urf-odatlaridan, oilaviy tarbiya masalasida tamal tosh boʻlib kelgan rasm-rusumlaridan, milliy tarbiya asosi hisoblangan anʼanalaridan mosuvo boʻldi. Ular oʻrniga gʻarb madaniyati kirib keldi. Buning natijasida xalqimiz tarixan shakllangan boy madaniy merosidan va maʼnaviy qadriyatlaridan, tom maʼnoda – sharqona uslubdan *(oilaviy tarbiya usulidan)* marginallashish tendensiyasini boshdan kechirmoqda. Bu jamiyat uchun nafaqat maʼnaviy, balki moddiy jihatdan ham ijtimoiy tanazzulni keltirib chiqaruvchi omildir. Chunki, buyuk yunon mutafakkiri Aristotel fikri bilan aytganda "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi"[22; 224-b.]. Miloddan avvalgi 350-yilda aytilgan ushbu "oddiy hayot hikmati"ni tushunmaslikning oʻzi fojiadir. Shu nuqtai nazardan tahlil etganda, tarbiya masʼuliyati oʻrniga "iqtisodiy tarbiya"ning qaror topib borayotganligiga quyidagi omillar sabab boʻlmoqda:

1. Oʻzbekiston misolida qaraydigan boʻlsak, davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Bu bosqichda jamiyatdagi asosiy urgʻu – "iqtisodiy taʼminot"ni oshirishga qaratilishi tabiiy holat hisoblanadi. Shu sababli, mamlakat aholisining koʻpchilik qismi – iqtisodiy rivojlangan davlatlarga ishlash *(iqtisodiy daromadini oshirish)* maqsadida migratsiya qilmoqda.

2. Mustaqillik yosh va iqtisodiy inqiroz yoqasiga kelib qolgan Oʻzbekiston Respublikasi uchun – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jihatdan chuqur oʻylangan, istiqbolli, oxir-oqibat xalq ravnaqi bilan bogʻlangan strategiyani ishlab chiqishni talab etayotgan edi. Albatta, bu reformatsiyani amalga oshirish mexanizmi, avvalo, "iqtisod"ga borib taqalar edi. Shu sababli, istiqlolning ilk yillarida xalqimiz ongida "iqtisod – barcha masalada yechimdir" kabi dunyoqarashni shakllanishiga olib keldi.

3. Uzoq yillar davomida taʼlim, sogʻliqni saqlash, qurilish, ijtimoiy taʼminotda *(ish beruvchi va talabgor oʻrtasida)* korrupsiyalashgan tizim qaror topdi. Buning natijasida: "puling boʻlsa oʻqishga kirasan", "puling boʻlsa ishga kirasan", "puling boʻlsa shifokorga murojaat etasan" va boshqa shu kabi ijtimoiy muammolar (qusurlar) taʼsirida yoshlar ongi "barcha muammoning negizida iqtisodiy koʻrsatkich" yotibdi "tamoyili" shakllanib keldi.

4. Mustaqillikning ilk yillarida sifatli kadrlar tayyorlash mexanizmi "qoniqarli darajada" ishlamadi. Xususan, yetti yoshda boʻlgan bolalarni maktabgacha taʼlimga qamrov darajasi 50 foizga yetmadi, maktab taʼlimi "eʼtibor" markazida boʻlmadi, oliy taʼlim kadrlar tayyorlash "fabrikasi"ga aylanib qoldi. Boshqacha aytganda, oliy taʼlim sifatli kadr chiqarish oʻrniga

"qancha talaba oʻqitish imkoniyatiga egamiz", "oliy taʼlimni tugatib diplom olgan talabalarning qanchasi ish bilan band" kabi savollarga javob berishga ixtisoslashgan tizimga aylantirildi.

**Xulosa va takliflar.** Ilmiy tadqiqot natijalari quyidagi mulohazalarni ilgari surishga asos boʻldi:

***Birinchidan,*** axborot asri globallashuvi natijasi ularoq yoshlarni barkamol etib tarbiyalash masalasi oʻz dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, bolalarimizga axloqiy tarbiya berish borasidagi "zamonaviy qarashlarimizni" oʻzgartirmas ekanmiz, yoshlar qalbida qaror topib borayotgan "ommaviy madaniyat" eskalatsiyasi taʼsiridan chiqib ketishga imkon boʻlmaydi.

***Ikkinchidan,*** iqtisod – inson ehtiyojini qondiruvchi omildir. U (iqtisod) – shaxs ongini, dunyoqarashini, yashashdan maqsadini, jamiyatda tutgan oʻrnini belgilovchi vositaga aylanmasligi zarur. Buning uchun, taʼlim va tarbiya uzviyligini funksional integratsiyalashtiruvchi ijtimoiy mexanizmni ishlab chiqish talab etiladi.

***Uchinchidan,*** tarbiya birlamchi, taʼlim uni toʻldiruvchi omildir, bu ikki kategoriyaning harakat mexanizmida hech bir sabab (shu jumladan iqtisodiy taʼminot ham), ijtimoiy toʻsiq (gʻov) boʻlmasligi zarur. Aks holda ming yillar davomida milliy qadriyat darajasida shakllanib kelgan tarbiya masalasida marginallashuv yuzaga keladi. Bunday jarayon ortidan oʻz navbatida taʼlim demormatsiyalashuvi paydo boʻladi.

***Toʻrtinchidan,*** zamonaviy kibermakon taraqqiyoti natijasi oʻlaroq ixtiro etilgan internet tizimi – yoshlar tarbiyasida diskriminatsiya *(milliy maʼnaviy qadriyatlardan ajralish, uzoqlashish)* tendensiyasini boshlab berdi. Bugungi oilalardagi asosiy muammo shuki, ular farzand tarbiyasidan "iqtisodiy taʼminotni" yuqori koʻrishidir. Aksariyat ota-onalar ongida "pul hamma muammoga yechim" dunyoqarashining shakllanib borayotganligi, jamiyat uchun tuzatib boʻlmas fojiadir.

***Beshinchidan,*** yoshlarga taʼlim va tarbiya berish tadrijiyligini taʼminlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, ota-ona shaxsiy masʼuliyatini oshiruvchi "oilada iqtisodiy tarbiya" kodeksini ishlab chiqish va uning harakat mexanizmini olib boruvchi jamoatchilik kuzatuv kengashini tuzish maqsadga muvofiqdir.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б. 67.
2. Qarang: https//:www.gazeta.uz/uz/2017/07/01/nutq
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони "Yoshlar – kelajagimiz" Давлат дастури тўғрисида. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 28.06.2018 й., 06/18/5466/1527-сон.
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021. –Б.299.
5. Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. –Т.: Маънавият, 2016. –168 б.
6. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2004. –Б.7.
7. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. «Руҳий тарбия» 1, 2, 3 -жузлар («Покланиш», «Тикланиш» ва «Ҳулқланиш»). –Т.: Hilol-Nashr нашриёт-матбааси, 2021. 1-жуз. –480 б, 2-жуз. –496 б, 3-жуз. –464 б.
8. Саъдий Шерозий. Гулистон. –Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. –153 б.
9. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021. –Б.219.
10. Зинуров У.Г. Маркетинг в деятельности вузов: теория и методы решения. –М.: УФА, 1993. – С 42.
11. Оголёвой Л.Н. Инновационный менеджмент. –М.: Инфра, 2006. – С 64.

12. Малянова Н.Е. Управление потенциалам высшей школы как ресурсом развития региона. –М.: Пермь, 2010. – С 93.
13. Қуролов К. Иқтисодий таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантириш // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №3. 2016. –Б. 312-317.
14. Ражабов Ў. Д. Иқтисодий таълимнинг иқтисодий тафаккурга таъсири // Современное образование (Узбекистан). №11. 2017. –Б. 11-15.
15. Hindaryatiningsih N. et al. The Implementation of Online Learning for Economic Education Students at the University //AL-ISHLAH: Jurnal Pendidikan. T.14. №4. 2022. –P. 7033-7042.
16. Paşa A.T. Economic education in the digital era//Proceedings of the International Conference on Business Excellence. T.14. №1. 2020. –P. 434-444.
17. Qarang: https://zarnews.uz/uz/post/uni (ma’lumat: 2023.02.24 ko‘chirib olindi).
18. Qarang: https://uza.uz/uz/posts/oliy-talim-islohotlari-kengayib-borayotgan-imkoniyatlar_392536 (ma’lumat: 2023.02.24 ko‘chirib olindi).
19. Qarang: https://samdu.uz/frontend/web/upload/content-files/61439e08a7830.pdf (ma’lumat: 2023.02.24 ko‘chirib olindi).
20. Qarang: https://aniq.uz/yangiliklar/super-kontrakt-narxini-qanday-hisoblash-kerak (ma’lumat: 2023.02.24 ko‘chirib olindi).
21. Qarang: https://kun.uz/news/2022/09/02/super-kontrakt-miqdorlari-10-foizga-kamaytirildi (ma’lumat: 2023.02. 24 ko‘chirib olindi).
22. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: Ўзбекистон, 2021. –Б.224.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefonlar:**

(99) 602-09-84 (telegram).